

**GAROVGA QO'YILAYOTGAN AVTOTRANSPORT VOSITASI VA/YOKI MAXSUS
TEXNIKANI SUG'URTALASH BO'YICHA BOSH SUG'URTA SHARTNOMASI**

Nº 01/30/BRB/018

Toshkent sh.

"15" 07 2025 yil

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2022-yil "25"-fevraldagi SF 00037-sonli litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi "MY-INSURANCE" Sug'urta Kompaniyasi AJ (keyingi o'rirlarda – Sug'urtalovchi) nomidan Ustav (Ishonchnoma) asosida harakat qiluvchi Bosh direktor A.K.Yuldashev bir tomondan hamda bundan keyingi matnlarda "Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi" deb yuritiluvchi "Biznesni rivojlantirish banki" ATB nomidan 2024-yil 24-apreldagi 80-09/16-sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bank Boshqaruv raisi o'rinnbosari v.b. O.R.Voxidov ikkinchi tomondan, bиргаликда "Tomonlar" va alohida "Tomon" deb yuritiluvchilar, mazkur kreditning qaytmaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha Bosh sug'urta shartnomasi (keyingi o'rirlarda – sug'urta shartnomasi)ni quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SUG'URTA SHARTNOMASIDAGI TA'RIFLAR

Sug'urtalovchi – umumiy sug'urta sohasining tegishli klasslari bo'yicha sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, mazkur sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va hajmda Naf oluvchiga sug'urta toponi to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari.

Naf oluvchi – sug'urtalangan avtotransport vositasi ba/yoki maxsus texnika (-lar)ning asralishida qonun hujjalari va sug'urta shartnomasiga asoslangan mulkiy manfaati bo'lgan hamda sug'urta tovonini olishga haqli bank – "Biznesni rivojlantirish banki" ATB va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari (bank xizmatlari ofisi va markazi).

Qarz oluvchi/Sug'urta qildiruvchi – mazkur sug'urta shartnomasiga qo'shilgan (Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta akseptlangan) hamda Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kiruvchi Naf oluvchining mijozlari.

Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi – Qarz oluvchi hisoblanadi.


Garovga qo'yuvchi (*sug'urtalanayotgan avtotransport vositasi/maxsus texnika Qarz oluvchiniki bo'lmasa*) – Qarz oluvchi va Naf oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga muvofiq, kreditning ta'minoti sifatida o'ziga tegishli bo'lgan avtotransport vositasi/maxsus texnikani garovga qo'yuvchi shaxs bo'lib, Garovga qo'yuvchi Anketa-arizani imzolash orqali sug'urta shartnomasi bilan tanishganligini tasdiqlaydi.

Anketa-ariza – Qarz oluvchi tomonidan imzolangan, mazkur sug'urta shartnomasining barcha shartlari bilan tanishib chiqqanligi, o'z ixtiyori bilan sug'urta shartnomasiga butunlay qo'shilishini hamda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlarni qabul qilganligini tasdiqlovchi hujjat. Anketa-ariza sug'urta shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi va 1-ilovasiga muvofiq rasmiy lashtiriladi.

Ommaviy oferta – sug'urta shartnomasining barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, javob qaytargan har qanday shaxs bilan ushbu taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo'lgan xohish-irodasi haqidagi Sug'urtalovchining taklifi bo'lib, ommaviy oferta mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchining faqat o'ziga tegishli bo'lgan avtotransport vositasi/maxsus texnikasi garovga taqdim etilganda qo'llaniladi.

Avtotransport vositasi – yo'lovchilar, bagaj, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar bo'lib, ushbu sug'urta shartnomasining 1-ilovasida ko'rsatilgan avtotransport vositasi (keyingi matnlarda "transport vositasi" yoki "TV").

Maxsus texnika – turli maxsus, afzal ravishda notransport ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan maxsus texnikalar: qurilish texnikasi (ekskavatorlar, buldozerlar, g'altakli mashinalar, asfalt yotqazuvchilar, yuk ortuvchilar, beton qorishtirgichlar, betonnasoslar va boshqalar); qazib olish sanoatida foydalaniladigan maxsus texnika (qoziq qoquvchi, burg'ulash qurilmalari va boshqalar); o'rmon va qishloq xo'jaligi texnikalari (kombaynlar, traktorlar, yog'och sudroychilar, seyalkalar,


1

yog'och tashuvchilar va boshqalar) hamda qonunchilikka muvofiq maxsus texnikalar turkumiga kiruvchi boshqa har qanday maxsus texnikalar bo'lib, ushbu sug'urta shartnomasining 1-ilovasida ko'rsatilgan maxsus texnika (keyingi matnlarda "MT").

Haydovchi – Sug'urtalangan TV/MTni boshqarishga ruxsat beradigan toifali haydovchilik guvohnomasiga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalangan TV/MTni boshqarish huquqiga (ishonchnoma, yo'l varag'i va boshqalarga) ega bo'lgan shaxs.

Geografik hudud – Sug'urta polisi amalda bo'ladigan hudud. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha, agar boshqa shartlar kelishilmagan bo'lsa, geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari – Sug'urtalangan TV/MT yoki uning alohida qismlarini uchinchi (o'zga) shaxslar tomonidan yondirilishi, sindirilishi, buzilishi, o'zlashtirilishi, shuningdek uchinchi shaxslarning qonunga zid/huquqbazarlik/noqonuniy harakatlari natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi.

Uchinchi shaxslar – Qarz oluvchi, Garovga qo'yuvchi va Haydovchidan boshqa har qanday shaxslar.

Yo'l-transport hodisasi – TV/MTning yo'l dagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, odamlarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqacha tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa.

Gaz balon uskunasi – TV/MT dvigatelining siqilgan tabiiy, suyultirilgan neft gazlarida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlashini ta'minlaydigan maxsus jihoz.

Sug'urta qiymati – Sug'urta shartnomasini tuzish paytida tomonlarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan TV/MT qiymati.

Sug'urta summasi – Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchining ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatları hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

Sug'urta tovoni – Sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda, Naf oluvchi yoki Qarz oluvchi (Naf oluvchining tanlovi ga ko'ra)ga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'i.

Sug'urta mukofoti – Qarz oluvchi yoki qonunchilikda ta'qilangan shaxslar tomonidan ushbu sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da belgilangan tartibda va muddatda Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi.

Sug'urta polisi – Sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta) tuzilganligini hamda Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatları kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polislari Sug'urtalovchi tomonidan Qarz oluvchi (-lar)ning murojaatiga asosan har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida rasmiylashtirib beriladi.

Sug'urta hodisasi – sug'urtalangan TV/MTning sug'urta muddati mobaynida bevosita mazkur sug'urta shartnomasining 3.1-bandida keltirilgan qaltsliklardan to'g'ridan-to'g'ri jismoniy shikastlanishi, yo'qotilishi yoki nobud bo'lishi natijasida Naf oluvchi/Qarz oluvchining mulkiy manfaatlariga zarar yetishi.

Sug'urta muddati – Sug'urta polisida ko'rsatilgan davr bo'lib, mazkur sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan tadbiq etiladi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi. Sug'urta muddati har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida va muddatiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Franshiza – Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan Naf oluvchi/Qarz oluvchi zararlarining bir qismi bo'lib, mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha franshiza qo'llanilmaydi.

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Sug'urta shartnomasining predmeti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo'shilish shartnomasi) muddalariga asosan, Qarz oluvchining (Sug'urta qildiruvchining) mazkur sug'urta shartnomasi shartlariga qo'shilishi hisoblanadi.

2.2. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi Anketa-arizani imzolash yoki ommaviy ofertani akseptlash orqali sug'urta shartnomasiga qo'shilgan hisoblanadi va sug'urta shartnomasining tarafi, ya'ni Qarz oluvchi/Sug'urta qildiruvchi sifatida ishtiroy etadi.



Ommaviy oferta Qarz oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchi yoki Naf oluvchining rasmiy veb-sayti, masofaviy xizmat turlarini ko‘rsatuvchi ilovalari va/yoki axborot almashishning boshqa usullaridan foydalangan holda akseptlanadi.

2.3. Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- Sug‘urta shartnomasi shartlarini boricha va to‘liqligicha qabul qilish;
- Mazkur sug‘urta shartnomasining **6.1** va **6.2** bandlariga muvofiq sug‘urta mukofotini to‘lash.

Ommaviy oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367-, 369-, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

2.4. Sug‘urta mukofotini to‘lanishi, Qarz oluvchining sug‘urta shartnomasi va sug‘urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘shilishiga so‘zsiz va to‘liq rozilagini (akseptlaganini) bildiradi.

2.5. Sug‘urtalovchi mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urtalangan TV/MTni Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga va kelishuv (TV/MTni baholash bo‘yicha) dalolatnomasi hamda garov shartnomasiga muvofiq, kreditning ta’minti sifatida garovga qo‘yilganligi to‘g‘risida xabardor deb hisoblanadi.

2.6. Mazkur sug‘urta shartnomasiga muvofiq, Qarz oluvchi va Naf oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga taqdim etilgan hujjatlar, jumladan ilovadagi ma’lumotlar sug‘urta shartnomasining ajralmas qismi ekanligini, ishonchli va haqiqatga to‘g‘ri keluvchi ma’lumotlar ekanligini tasdiqlaydilar.

III. SUG‘URTA HIMOYASI

3.1. Mazkur sug‘urta shartnomasi shartlariga ko‘ra, Sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasining 1-ilovasida ko‘rsatilgan sug‘urtalanayotgan TV/MTga sug‘urta himoyasini quyidagi qaltisliklar natijasida sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda taqdim etadi:

- ofatlar: yashin urishi, suv bosishi, bo‘ron, dovul, yomg‘ir, do‘l, jala, qalin qor yog‘ishi, sel, zilzila, yer siljishi, ko‘chki;
- predmetlarning kelib urilishi/qlashi,
- yo‘l-transport hodisasi;
- yong‘in, portlash;
- uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari.

3.2. Maxsus qo‘shimcha shart:

Ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha tomonlar mustaqil qismlar, tizimlar, bog‘lovchi qismlar, moslamalarga (olib qochishga qarshi uskunalar, avtomagnitolalar, ovoz kuchaytirgichlar, karnay (dinamik), sport diskalari, har qanday turdagи antennalarga yetkazilgan zarar, agar ular ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan o‘rnatilmagan, sug‘urtalangan TV/MT to‘plamiga kiritilmagan yoki qo‘shimcha jihoz sifatida sug‘urtalanmagan bo‘lsa, ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha qoplanmasligini tasdiqlaydilar va bunga rozi bo‘ladilar.

Mazkur qo‘shimcha shart (band) sug‘urtalangan TV/MTga o‘rnatilgan gaz balon uskunalarini uchun qo‘llanilmaydi.

IV. UMUMIY ISTISNOLAR

4.1. Ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha quyidagi shart-sharoitda sug‘urtalangan TV/MTga yetkazilgan zararlar qoplanmaydi:

a) sug‘urtalangan TV/MT ixtiyorida bo‘lgan, Qarz oluvchi, Haydovchi yoki Garovga qo‘yuvchining sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishiga yo‘naltirilgan, qasddan qilgan harakatlari (o‘z fuqarolik burchini ado etish yoki Qarz oluvchi/Haydovchi yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog‘ligi, nomusi va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bogliq harakatlar bundan mustasno);

b) Qarz oluvchi, Haydovchi yoki Garovga qo‘yuvchi tomonidan sug‘urtalangan TV/MT haqida avvaldan yolg‘on ekanligi ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni xabar qilinishi;

c) istalgan shakldagi alkogolli, giyohvandlik yoki toksik mastligi holatida yoki reaksiya tezligini va diqqatini pasaytiruvchi dori preparatlarining ta’sirida bo‘lgan Haydovchining TV/MTni boshqarishi, betoblik yoxud qattiq charchoq holatida boshqarishi, tibbiy ko‘rikdan (mastlik holatini aniqlash bo‘yicha ekspertizadan) o‘tishdan bosh tortishi;

d) sug‘urtalangan TV/MTning ushbu sug‘urta shartnomasi amal qilishidan avval bo‘lgan nosozligi yoki nuqsonlari to‘g‘risida Qarz oluvchi, Garovga qo‘yuvchi yoki Haydovchi bilgan bo‘lsa;



e) sug'urtalangan TV/MTni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalariiga muvofiq, TV/MTni boshqarishga huquqi va ruxsati (haydovchilik guvohnomasi, ishonchnoma, yo'l varaqasi, majburiy sug'urta polisi) bo'lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi. Mazkur band TV/MT o'g'irlangan taqdirda qo'llanilmaydi;

f) TV/MT g'ildiraklari va shinalarining qatnov yo'lining notejisligi yoki yomon holati, kir buyumlarni bosishi sababli zararlanishi, agar bu TV/MT shikastlanishi yoki nobud bo'lishiga olib kelmasa, qoplanmaydi;

g) TV/MTning o'g'irlanishi, uning uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari oqibatida yo'q qilinishi yoki shikastlanishi hamda jismlarning kelib urilishi natijasida, agar vakolatlari organlarga (IIB, YXB, FVB, YOXXB) qonunchilikka muvofiq o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, shuningdek agar ushbu holat vakolatlari organlar tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsa;

h) sug'urta mukofoti Sug'urtalovchining bankdagi hisobraqamiga mazkur shartnomada belgilangan muddatda to'lanmaganda;

i) doimiy ta'sir etuvchi foydalanish omillarining ta'siri (eskirish, eroziya, korroziya, quyqa hosil bo'lishi va hokazo), umuman TV/MT, shu jumladan uning ayrim detallari va tarmoqlarining asta-sekin shikastlanishi;

j) sug'urtalangan TV/MT Naf oluvchi bilan yozma kelishuvhsiz lizingga yoki garovga berilgan bo'lsa;

k) Qarz oluvchi, Garovga qo'yuvchi yoki Haydovchi tomonidan Sug'urtalovchini sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi haqida sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan vaqtida (5 kun ichida) yozma/og'zaki xabardor qilmagan bo'lsa;

l) sug'urtalangan TV/MTdan boshqarishni o'rgatish yoki musobaqa va sinovlarda qatnashishda foydalanish;

m) xarbiy bosqinchilik harakatlari, xarbiy harakatlar yoki xarbiyga o'xshash harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), fuqarolik urushi;

n) g'elayon, fuqarolarning ommaviy tartibsizliklari, milliy tavsifdagi ish tashlashlar;

o) shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshirilgan terrorchilik harakatlari;

p) amaldagi qonun hujjalariiga va O'zbekiston Respublikasi sud idoralari qaroriga muvofiq, sug'urtalangan TV/MTni majburiy olib qo'yilishi oqibatida mulkdorlikdan doimiy mahrum bo'lish.

V. SUG'URTA SUMMASI VA JAVOBGARLIK CHEGARASI

5.1. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi – kredit shartnomasiga asosan kreditning ta'minoti uchun garovga taqdim etilayotgan TV/MTning Naf oluvchi, Qarz oluvchi va/yoki Garovga qo'yuvchi o'rtasida tuzilgan kelishuv dalolatnomasidagi qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

5.2. Sug'urta summasi har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida belgilanadi va sug'urta polisida ko'rsatiladi.

VI. SUG'URTA MUKOFOTINI HISOBBLASH VA TO'LASH TARTIBI

6.1. Sug'urta mukofoti sug'urta summasi va kredit shartnomasining muddatidan kelib chiqib, quyidagicha belgilanadi:

a) Transport vositasi bo'yicha har bir yil uchun yillik **0,6** foiz;

b) Maxsus texnika bo'yicha har bir yil uchun yillik **0,2** foiz.

6.2. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan sug'urta shartnomasiga qo'shilish bo'yicha Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta tasdiqlangan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida to'liq to'lanadi.

6.3. Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'lanishi mazkur sug'urta shartnomasi shartlariga to'liq va so'zsiz qo'shilganligini (akseptlaganini) bildiradi.

6.4. Sug'urtalovchi to'langan sug'urta mukofotini Qarz oluvchining yozma arizasiga ko'ra, Naf oluvchining roziligi bilan (xat yoki onlayn tartibda yuborilgan API so'roviga asosan) 15 (o'n besh) ish kuni ichida quyidagi tartibda Qarz oluvchiga qaytarib beradi:

- Kredit shartnomasi bo'yicha kredit mablag'lari ajratilmasa to'langan sug'urta mukofoti to'liq qaytariladi;

- Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha ajratilgan kredit mablag'lari muddatidan avval so'ndirilganda, sug'urta mukofotining mazkur so'ndirilgan muddatgacha (yozma murojat qilingan kungacha) tegishli qismini chegirib tashlagan holda qaytariladi.

VII. SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI

7.1. Sug'urta polisi mazkur sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da belgilangan tartibda va muddatda Sug'urtalovchining bankdagi hisobraqamiga sug'urta mukofoti (pul mablag'lari) kelib tushgandan so'ng Sug'urtalovchi tomonidan 1 (bir) kun ichida taqdim etiladi.

7.2. Sug'urta polisi (E-polis) Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti, ilovalari va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron ravishda taqdim etiladi.

7.3. Mazkur sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urtalovchining sug'urta xizmatini ko'rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, Naf oluvchi yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to'xtatishga haqli.

VIII. SUG'URTA SHARTNOMASINING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR BO'LISH TARTIBI

8.1. Ushbu sug'urta shartnomasi tomonlar imzolagan va taraflar qo'shilgan (Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta akseptlangan) paytdan boshlab kuchga kiradi hamda tomonlar/taraflar mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlar to'liq bajarilgunga qadar amalda bo'ladi.

8.2. Mazkur sug'urta shartnomasiga asosan sug'urta muddati har bir sug'urta polisi bo'yicha alohida belgilanadi.

8.3. Ushbu sug'urta shartnomasi bilan kelishilgan sug'urta tovoni mazkur sug'urta shartnomasi kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan qo'llaniladi.

8.4. Sug'urta shartnomasi quyidagi holatlarda bekor qilinadi, biroq mazkur sug'urta shartnomasi bekor qilinishi uning amal qilgan davrida berilgan sug'urta polislari muddati tugaguniga qadar amalda bo'ladi:

- Naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchini sug'urta shartnomasini bekor qilish bo'yicha 10 (o'n) kun oldin ogohlantirish orqali;

- Tomonlarning kelishuviga muvofiq ushbu sug'urta shartnomasiga qo'shimcha kelishuv tuzish orqali;

- Sud tartibida;

- Sug'urtalovchi tomonidan mazkur sug'urta shartnomasi va Naf oluvchi bilan avval tuzilgan boshqa sug'urta shartnomalari bo'yicha Naf oluvchi oldidagi sug'urta tovonini to'lash bilan bog'liq majburiyatlar belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa;

- O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa holatlarda.

IX. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

9.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

- Sug'urta tovoni to'lab berilganidan so'ng, Qarz oluvchidan zararni undirib olish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda da'vo qilish huquqini amalga oshirish;

- Sug'urtalangan TV/MTning holatini monitoring qilish;

- Sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida Sug'urtalangan TV/MTning holatini va qiymatini, shuningdek Qarz oluvchi tomonidan TV/MT to'g'risida bildirilgan ma'lumotlarning to'g'riliqini tekshirish;

- Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchidan sug'urta hodisasi to'g'risidagi yozma xabarnomani kutmay, sug'urta hodisasi bo'yicha yetkazilgan zararlarni ko'rib chiqishga va baholashga kirishish;

- Sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi holatini va sabablarini tasdiqlovchi to'liq ma'lumot va kerakli hujjatlar olinishigacha, shuningdek hodisa yuzaga kelishi holati bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilishi holatida - vakolatli organlar tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi paytigacha Sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish;

9.2. Sug'urtalovchining majburiyatları:

- Sug'urta polisini ushbu Sug'urta shartnomasida belgilangan muddat va tartibda berish;

- Sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida Qarz oluvchiga Sug'urta tovoni bo'yicha maslahatlar berish;

- Qarz oluvchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan zarur hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim qilganidan so‘ng, Naf oluvchi bilan sug‘urta hodisasi to‘g‘risida dalolatnoma tuzish va sug‘urta tovonini to‘lab berish yoki unga sug‘urta tovonini to‘lashni rad etish to‘g‘risida, rad etish sabablari ko‘rsatilgan xabarnoma yuborish;

- Barcha kerakli hujjatlар оlinishidan va sug‘urta hodisa yuzaga kelganligi holati e‘tirof etilganidan keyin mazkur sug‘urta shartnomasida belgilangan muddatda sug‘urta tovonini to‘lash;

- Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda Naf oluvchi/Qarz oluvchiga ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartib va miqdorda sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni)ni to‘lash;

- Qarz oluvchi/Garovga qo‘yuvchi va uning mulkiy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilmasligi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

9.3. Naf oluvchining huquqlari:

- Sug‘urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu sug‘urta shartnomasiga qo‘srimchalar va/yoki o‘zgartirishlar kiritish;

- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi va avval tuzilgan boshqa shartnomalar bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlar belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa, yangi sug‘urta polisi qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish va mazkur sug‘urta shartnomasini bekor qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq mazkur sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish;

- Sug‘urta polisi bo‘yicha Sug‘urtalovchidan o‘z majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;

- Mazkur sug‘urta shartnomasining amal qilish davrida Sug‘urtalovchining sug‘urta xizmatini ko‘rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me’yoriy hujjatlarida ko‘rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish;

- Sug‘urtalovchining veb-saytida e‘lon qilingan to‘lovga qobiliyatlilik normativlari bo‘yicha talablar bajarilmayotganligi aniqlansa, yangi sug‘urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to‘xtatish.

9.4. Naf oluvchining majburiyatları:

- mazkur sug‘urta shartnomasining shartlari va tartibiga asosan o‘zining va Qarz oluvchining nomidan Sug‘urtalovchidan majburiyatlarini bajarilishi bo‘yicha ariza (talabnoma) yuborish;

- sug‘urta tovoni to‘langanligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnomani Qarz oluvchi va Sug‘urtalovchiga ularning so‘roviga ko‘ra taqdim etish.

- Sug‘urtalovchini kredit shartnomasining oxirgi muddatini uzaytirilishi (ichki grafiklarning muddatini o‘zgartirish bundan mustasno) to‘g‘risida 30 (o‘ttiz) ish kuni ichida xabardor qilish.

9.5. Qarz oluvchining huquq va majburiyatları:

- Sug‘urtalovchiga sug‘urta hodisasi yuzaga kelganligi haqida sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan vaqtida (5 kun ichida) yozma/og‘zaki ravishda murojaat qilish;

- Sug‘urta hodisasi yuz berganda, ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lab berish yuzasidan ariza bilan murojaat qilish;

- TV/MTdan boshqarishni o‘rgatish yoki musobaqa va sinovlarda qatnashish maqsadida foydalanmaslik;

- Mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta mukofoti to‘lashdan oldin sug‘urta shartnomasi va uning ilovasi bilan tanishish;

- Sug‘urta shartnomasi amal qilishi davrida sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urtalovchidan bepul maslahatlar olish;

- Mazkur sug‘urta shartnomasiga asosan Anketa-arizani imzolangan yoki ommaviy oferta tasdiqlangan kundan boshlab, 3 (uch) bank kuni ichida sug‘urta mukofotini to‘liq to‘lab berish;

- Sug‘urtalovchi o‘zi to‘lagan pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo‘lgan hisobvarag‘laridan Qarz oluvchining roziligidiz pul mablag‘larini undirishga, Qarz oluvchi ommaviy ofertani akseptlash yoki Anketa-arizani imzolashi bilan o‘z roziligini bildirganligini anglatadi;

- Sug‘urtalovchining so‘roviga ko‘ra, mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi va tafsilotlarini aniqlash uchun zarur ma‘lumotlar yoki axborotlarni Sug‘urtalovchiga taqdim etish;

- Sug‘urtalovchiga subrogatsiya va regress tartibida o‘tgan talab qilish huquqini amalgalash oshirish uchun zarur barcha hujjatlari va dalillarni taqdim etish hamda barcha ma‘lumotlardan Sug‘urtalovchini xabardor qilish;



6

- Sug‘urta hodisasi yuzaga kelganda mustaqil ekspertiza o‘tkazilishini talab qilish;
- TV/MTga o‘rnatilgan qo‘shimcha jihoz-uskunalarni qo‘shimcha sug‘urta qilishni amalga oshirish.

X. SUG‘URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO‘LASH TARTIBI

10.1. Qarz oluvchi mazkur sug‘urta shartnomasining 3.1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan sug‘urta hodisasi yuz berganda, darhol sodir bo‘lgan voqeа tug‘risida mutasaddi idoralarga (yo‘l harakati xavfsizligi, yong‘in xavfsizligi, ichki ishlar idoralariga va boshqalarga) xabar qiladi va 5 (besh) kun ichida Sug‘urtalovchiga yozma yoki og‘zaki ravishda murojaat qiladi.

Bunda, Qarz oluvchi har qanday sug‘urta hodisasi to‘g‘risida murojaat qilganda Sug‘urtalovchi o‘z xodimini yoki boshqa shaxsni sodir bo‘lgan voqeanning turi, sababi va tavsiotlarini batafsil o‘rganish uchun yuborishga haqlidir.

10.2. Qarz oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lab berish haqida yozma yoki og‘zaki ravishda ariza beriladi va quyidagi hujjatlarning asli/nusxasi mazkur arizaga ilova qilinadi:

- sug‘urta polisi;
- haydovchilik guvohnomasi;
- TV/MTni ro‘yxatga olish to‘g‘risidagi guvohnoma;
- TV/MTni boshqarish huquqini beruvchi hujjat;
- voqeа sababi va tavsiotlarini ko‘rsatgan holda sodir bo‘lgan voqeani tergov qilishga vakolati bor mutasaddi idoralardan tegishli ma’lumotnoma;
- baholash faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha tegishli hujjatlari mavjud bo‘lgan baholovchi tashkilot tomonidan barcha ishlar, ehtiyyot qismlar va materiallar ko‘rsatilgan moddiy zararni baholash bo‘yicha hisob-kitobi/xulosasi/hisoboti;
- sug‘urta hodisasiga tegishli bo‘lgan boshqa hujjatlar (agar mavjud bo‘lsa).

10.3. Sug‘urta tovonini to‘lash tartibi:

a) TV/MT olib qochilgan yoki to‘liq nobud bo‘lgan taqdirda – Sug‘urtalovchi sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta summasidan oshmagan miqdorda to‘laydi;

b) TV/MT shikastlangan taqdirda – Sug‘urtalovchi baholash faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha tegishli hujjatlari mavjud bo‘lgan baholovchi tashkilot tuzgan moddiy zararni baholash naryad-buyurtma/hisob-kitob miqdorida, lekin sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta summasidan oshmagan miqdorda sug‘urta tovonini to‘laydi.

c) sug‘urta hodisasidan kelib chiqqan va hujjatlar bilan tasdiqlangan, TV/MTni ta‘mirlash jarayonida aniqlangan yashirin shikastlarni bartaraf etish hamda sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishi natijasida TV/MTga yetkazilgan zararni baholash faoliyatini amalga oshirish uchun sertifikatga ega baholovchi tashkilot amalga oshirgan baholash bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta summasidan oshmagan miqdorda to‘laydi.

10.4. Qarz oluvchi taqdim etilgan hujjatlar asosida Sug‘urtalovchi tomonidan 15 (o‘n besh) ish kuni ichida sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnoma tuziladi, unda olingan barcha ma’lumotlar ko‘rsatiladi va to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta summasi (tovoni) miqdori belgilanadi. Dalolatnoma Sug‘urtalovchi, Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchi tomonidan imzolanadi.

10.5. Sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni) to‘lovi to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolangandan so‘ng 3 (uch) ish kuni ichida Sug‘urtalovchi tomonidan Naf oluvchi yoki Qarz oluvchiga (Naf oluvchining tanloviga ko‘ra) sug‘urta tovoni to‘lab beriladi. Sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni) to‘langan kun bo‘lib, Naf oluvchi/Qarz oluvchining bank hisobvarag‘iga pul mablag‘lari kelib tushgan kun hisoblanadi.

10.6. Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni)ni to‘lash rad etilgan taqdirda, ushbu sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq tegishli hujjatlarni taqdim etgan kundan boshlab 10 (o‘n) kalendar kun ichida rad etish haqida xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o‘z ichiga olgan bo‘lishi lozim.

XI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Mazkur sug‘urta shartnomasining shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O‘zbekiston Respublikasining Qonuni va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

11.2. Sug‘urtalovchi mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlar bilan Qarz oluvchi (Qarzdor) bilan birga kreditning sug‘urta qilingan qismi bo‘yicha sug‘urta summasi (qoplamasи, tovoni) miqdorida Naf oluvchi oldida solidar tartibda javobgar bo‘ladi.

11.3. Sug‘urtalovchiga tegishli pul mablag‘larini to‘lash muddatlariga amal qilinmagan taqdirda, Sug‘urtalovchining talabiga ko‘ra, Qarz oluvchi (Qarz oluvchi) har bir kechiktirilgan kun uchun qarzning 0,1 (nol butun o‘ndan bir) foizi miqdorida, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 10 (o‘n) foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

11.4. Sug‘urta summasi (tovoni) to‘lovi muddatlariga amal qilinmagan taqdirda, Sug‘urtalovchi, Naf oluvchining talabiga muvofiq har bir kechiktirilgan kun uchun qarz miqdorining 0,1 (nol butun o‘ndan bir) foizi miqdorida, lekin to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘ning 10 (o‘n) foizidan oshmagan miqdorda penya to‘laydi.

XII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1. Tomonlar ushbu sug‘urta shartnomasi yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarni o‘zaro muzokaralar yo‘li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

12.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha taraflar o‘rtasida kelib chiqqan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo‘li bilan hal etishni imkonni bo‘lmasa, nizolar tegishli sudlar tomonidan amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

XIII. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

13.1. Tomonlar ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o‘z faoliyatida korruption harakatlarni to‘liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag‘lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi xizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta‘minlash, ma’muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish., raqobat va boshqa afzalliklarni ta‘minlashni to‘liq rad etadi. Tomonlar o‘z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo‘lsa)talablariga amal qiladilar.

13.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarish chog‘ida na o‘zları, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korruption to‘lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) har qanday korruption to‘lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo‘lmasliklarni kafolatlaydi.

13.3. Mazkur bo‘limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf bosqha tarafni bunday buzilish sodir bo‘lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tomonlar yozma xabarnomada ushbu bo‘limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens ishonch liniyasi” kanallari (tel:78-150-59-95, veb sayt www.brz.uz, Telegram messenger @BRB_ANTIKOR_BOT (email:antikor@brz.uz) orqali amalga oshiriladi.

13.4. Mazkur sug‘urta shartnomasini korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash taraflar tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

XIV. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Mazkur sug‘urta shartnomasiga qo‘srimchalar va o‘zgartirishlar kiritish tomonlarning roziligi asosida qo‘srimcha kelishuv tuzish orqali amalga oshiriladi, shartnoma shartlariga bir tomonlama o‘zgartirish kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

14.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatlar uchinchi shaxslarga topshirish tomonlarning yozma roziligesiz amalga oshirishiliga yo‘l qo‘yilmaydi.

14.3. Ushbu sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilmagan boshqa masalalar O‘zbekiston Respublikasi amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.



14.4. Sug‘urtalovchi va Naf oluvchi ma’lumotlarni sir saqlash bo‘yicha javobgardirlar va ular ushbu sug‘urta shartnomasi, uning ilovalari va shartnoma bilan bog‘liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning dastlabki yozma rozilgisiz uchinchi tomonga oshkor qilishlari man etiladi.

14.5. Tomonlarning yuridik manzili va bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda, ular bu haqda bir-birini 10 kalendar kunidan kechiktirmay xabardor qilishi lozim.

14.6. Mazkur sug‘urta shartnomasi 2 (ikki) nusxada tuziladi, Sug‘urtalovchi va Naf oluvchida bitta nusxadan saqlanadi va ularning har biri teng huquqiy kuchga ega.

14.7. Sug‘urta shartnomasi taraflar tomonidan imzolangandan so‘ng kuchga kiradi.

XV. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Sug‘urtalovchi”

**“MY- INSURANCE” Sug‘urta
Kompaniyasi AJ**

Manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani
kichik Mirobod ko‘chasi, 95-uy.

H/r: 20208000104786066003

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

MFO: 01037, **STIR:** 207002342,
XTTUT: 96220 **Tel.:** 71-205-19-19

Bosh direktor A.K.Yuldashev



“Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi”

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

Manzil: Toshkent shahar, A.Navoiy
ko‘chasi, 18-A uy.

H/r: _____


“Biznesni rivojlantirish banki” ATB

MFO: 01037, **STIR:** 206 916 313,

OKED: 64190, **tel.:** 78-150-93-39

Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b.

O.R.Voxidov



10 page!

“MY- INSURANCE” Sug‘urta Kompaniyasi AJ
va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB o‘rtasida
2025-yil _____ da tuzilgan
Bosh kelishuv shartnomasiga
1-ilova

“MY- INSURANCE” Sug‘urta Kompaniyasi
Bosh direktori A.K.Yuldashevga

Qarz oluvchi _____ dan

ANKETA-ARIZA

Ushbu Anketa-ariza bilan, Sizdan quyidagi ma’lumotlar asosida sug‘urta shartnomasini/polisini tuzishingizni so‘rayman.

1	Sug‘urta mahsulotining nomi:	
2	Sug‘urtalovchi:	
3	Qarz oluvchi/Sug‘urta qildiruvchi:	
4	Sug‘urtalangan shaxs:	
5	Naf oluvchi:	
6	Sug‘urta obyekti:	
7	Sug‘urta shakli:	
8	Sug‘urta klassi:	
9	Sug‘urta tavakkalchiliklari:	
10	Sug‘urta qiymati:	
11	Sug‘urta summasi:	
12	Sug‘urta mukofoti:	
13	Franshiza:	
14	Sug‘urta polisining amal qilish muddati:	
15	Sug‘urta himoyasiga olingan hudud:	
16	Sug‘urta qoidalari:	
17	Sug‘urta tashkilotining manzili:	
18	Alohiba qaydlar	
19	Sug‘urta shartnomasining quyidagi muhim shartlari bilan tanishdim hamda o‘z roziligidini bildiraman:	<p>Qarz oluvchi tomonidan mazkur anketa-ariza imzolangan va sug‘urta mukofoti to‘langan vaqtidan boshlab Sug‘urtalovchi, Naf oluvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida sug‘urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi. Qarz oluvchi sug‘urta shartnomasining barcha shartlarini istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilganligini anglatadi.</p> <p>Sug‘urta hodisasi bo‘yicha zarar qoplangandan keyin, Sug‘urtalovchi Qarz oluvchidan ushbu pul mablag‘larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo‘lgan har qanday turdagи hisobvarag‘laridan uning roziligidiz pul mablag‘larini undirishga mazkur anketa-arizani imzolashi bilan o‘z roziligidini bildirganligini anglatadi.</p>

Qarz oluvchi _____ Sana: 20 ____ y. _____
(imzo)

Garovga qo‘yuvchi _____ Sana: 20 ____ y. _____
(imzo)